



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№4

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 4-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Layli Baxtiyorovna Navruz-zoda Kichik biznes raqobatbardoshligini baholovchi sun’iy intellekt kompozit indeksi	159
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Iltom Begmatdulobovich Mattiyev Stressni boshqarish va sog‘lom hayot tarzi odatlari	163
Nargiza Muzafarovna Babaeva Biznesni muvaffaqiyatli bo‘lishida ta’lim va tajribaning ta’sir darajasi tahlili	167
Камилла Бахромовна Суюнова, Шахзода Абборовна Фаилова Маркетинг инноваций как фактор динамического роста отраслей экономики Узбекистана	172
Xilola Nematovna Ochilova Lavozimlar greydingining mohiyati hamda davlat va nodavlat tashkilotlarida lavozimlar greydingi tizimini qo‘llanilishi	176
Nigina Ma’rupovna Usmanova, Abdulxofiz Jamshid o‘g‘li Hamrayev Sun’iy intellektning inson resurslarini boshqarishni takomillashtirishga ta’siri	182
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov Korxonada xodimlarini boshqarishda KPI tizimidan samarali foydalanish yo‘llari	188
ИНВЕСТИЦИЯ ВА РЕЖАЛАШТИРИШ	
Насиба Акбаржонова Усманова, Жахонгир Санжарович Каримов Проблемы при планировании проекта. иерархическое распределение работ как ключ к решению	191
БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИ, ИҚТИСОДИЙ ТАҲЛИЛ ВА АУДИТ	
Rahmonkul Hamidovich Djalilov Respublikamizda bilvosita soliqlar auditining nazariy masalalari	195
Бобур Фарходович Боронов, Дилноза Гафуровна Худайназарова, Хушвақт Мансурович Ёдгоров Фармацевтика корхоналарининг бухгалтерия ҳисоби субъектлари сифатидаги ташкилий-ҳуқуқий масалалари	198
Анвар Нематович Холиқулов, Азамат Ҳамроқулович Рахимов Автомобиль сервис билан шуғулланадиган субъектларнинг самарадорлигини ифодаловчи кўрсаткичларнинг омилли таҳлили	203
Olimjon G‘ayrat o‘g‘li Fattoyev Aholi daromadlari tarkibi va dinamikasi tahlili asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish	207
Насиба Акбаржонова Усманова, Асель Армановна Сулейманова Анализ востребованных компетенций на рынке труда и их влияние на HR-стратегии компаний.	211
ТАЪЛИМ, КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ ВА ПЕДАГОГИКА	
Akram Abduraxmonovich Azizqulov G‘azzoliy ta’lim jarayonida shogirdning odobi xususida . (Abu Homid G‘azzoliyning ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarida shogird odobi xususida)	215
Sarvar Ayubovna Isxakova, Shaxzoda Shuxratovna Amriyeva Oliy ta’lim tizimining samaradorligini oshirish yo‘nalishlari	220
ЭЪТИБОРГА МОЛИК МАСАЛАЛАР	
Мамаюнус Қаршибоевич Пардаев, Обид Мамаюнусович Пардаев Метод ва методологиянинг мазмуни ва фарқлари Иқтисодиётга оид атамаларнинг таърифлари	225

Olimjon G‘ayrat o‘g‘li Fattoyev – SamISI tayanch doktoranti

AHOLI DAROMADLARI TARKIBI VA DINAMIKASI TAHLILI ASOSIDA IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston aholisining daromadlari tarkibi va dinamikasi statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinib, hududlar kesimidagi iqtisodiy nomutanosibliklar yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida aholining farovonligini oshirish va hududiy rivojlanishni takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: aholi daromadlari, hududiy farovonlik, daromadlar dinamikasi, iqtisodiy o‘shish, hududiy tafovut, bandlik, investitsiya loyihalari.

Kirish. Aholi daromadlari mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va farovonlik darajasini aniqlovchi eng muhim ko‘rsatkichlardan biridir. Daromadlarning tarkibi, ularning shakllanish manbalari hamda o‘shish sur‘atlarini tahlil qilish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda alohida ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning markazida aholi turmush darajasini oshirish, barqaror daromad manbalarini kengaytirish va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish masalalari turibdi. Xususan, Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2024-yil mutasaddilarga barcha 208 ta tuman va shaharlarning “o‘shish nuqtalari”ni aniqlash, aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan loyihalar tayyorlash vazifasi qo‘yildi. Bu esa daromadlar dinamikasini chuqur tahlil qilish zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Aholi daromadlari tarkibining muntazam o‘zgarib borishi iqtisodiyotda yuz berayotgan strukturaviy o‘zgarishlarning bevosita aksidir. Daromad manbalarining diversifikatsiyalashuvi, ish haqi ulushining o‘zgarishi, tadbirkorlik daromadlarining ortishi yoki kamayishi makroiqtisodiy jarayonlarning real ko‘rsatkichlarini beradi. Shu bois, aholi daromadlari tarkibi va dinamikasini ilmiy asosda baholash ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni takomillashtirish bo‘yicha samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim metodologik zamin yaratadi. Ushbu tadqiqot aynan mavjud statistik ma’lumotlarga tayangan holda daromadlarning o‘zgarish tendensiyalarini aniqlash va ularning iqtisodiy rivojlanish bilan o‘zaro bog‘liqligini yoritishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Aholi daromadlari tarkibi va ularning o‘shish dinamikasini baholashga doir nazariy, uslubiy hamda amaliy masalalar bo‘yicha bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu ilmiy qarashlar daromadlar tarkibini shakllantiruvchi omillarni, ularning o‘zgarish mexanizmlarini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini chuqur yoritib, mavzuning metodologik asoslarini mustahkamlab beradi. Xususan, aholi daromadlari tarkibi va dinamikasini o‘rganish bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda Gary S. Fields va mualliflar jamoasi (2002) Indoneziya, Janubiy Afrika, Ispaniya va Venesuela misolida uy xo‘jaliklarida daromadlarning yuqori o‘zgaruvchanligi va mobililigi mavjudligini aniqlab, barqaror daromad manbalarini shakllantirish hamda ijtimoiy ko‘mak mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini ta’kidlaganlar [1].

Burgess va Propper (1998) uy xo‘jaliklari daromadlarining iqtisodiy modelini ishlab chiqib, oilaviy holat, mehnat bozoridagi ishtirok va daromad manbalari farovonlikka sezilarli ta’sir ko‘rsatishini asoslab bergan hamda ijtimoiy siyosatda ushbu omillarni majmuaviy hisobga olishni taklif etganlar [2].

I.Woolard va S.Klasen (2005) Janubiy Afrika misolida daromad mobililigi va kambag‘allik dinamikasini o‘rganib, demografik tarkib, bandlik darajasi va mehnat bozori holati uy xo‘jaliklarining daromad barqarorligi uchun asosiy omillar ekanini ko‘rsatgan hamda bandlikni kengaytirish va ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashni taklif qilgan [3].

I.Husinov va N.Imamova (2023) esa real daromadlar, xarid qobiliyati va farovonlik ko‘rsatkichlarini tahlil etib, aholining real daromadlarini oshirish, investitsiyalar oqimini kuchaytirish va ijtimoiy himoya mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar berganlar [4]. Ushbu ilmiy qarashlar umumlashtirilganda, daromadlar dinamikasiga ta’sir etuvchi omillar ko‘p qirrali bo‘lib, ularni tahlil qilishda mehnat bozori, demografik tarkib, hududiy rivojlanish, oilaviy struktura va ijtimoiy siyosatning o‘zaro ta’sirini chuqur hisobga olish zarurligi aniqlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqotni amalga oshirish jarayonida aholi

daromadlari tarkibi va ularning vaqt davomida o‘zgarish tendensiyalarini o‘rganishda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv hamda dinamika qatorlarini tahlil qilish usullari qo‘llanildi. Tadqiqotda mavjud makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, aholi jon boshiga daromad, umumiy daromadlar tarkibi va ularning o‘shish sur‘atlari asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy determinantlari aniqlangan.

Tahlil va natijalar. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari tarkibi va ularning o‘shish dinamikasini chuqur tahlil qilish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni samarali rejalashtirishning muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Aholining daromad manbalari diversifikatsiyasi, mehnat daromadlarining barqaror oshishi hamda ijtimoiy transfertlarning samaradorligi mamlakatda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini belgilovchi asosiy omillar sirasiga kiradi.

Aholi daromadlari bilan bog‘liq mavjud amaliy muammolar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- daromadlar tarkibi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar bazasining hududlar kesimida yetarli darajada batafsil emasligi;
- norasmiy bandlik ulushining yuqoriligi tufayli real daromadlarni aniq baholashning murakkabligi;
- ijtimoiy to‘lovlar va transfertlar tizimining hududlar bo‘yicha bir xil ishlamasligi, ularning manzillilik darajasining yetarli emasligi;
- iqtisodiy o‘shish sur‘atlari va aholi daromadlari ko‘rsatkichlari o‘rtasida izchillikning ba‘zan sust namoyon bo‘lishi;
- aholi bandligini ta‘minlashga qaratilgan loyihalar baholash mexanizmlarining mukammal emasligi.

Aholi daromadlarining shakllanishi va ularning tarkibiy o‘zgarishlarini tizimli tahlil qilish orqali hududlarda farovonlik darajasini oshirish, iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda barqaror o‘shish omillarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

1-jadval

2019-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining umumiy daromadlari [5]

Ko‘rsatkichlar	Yillar				
	2019	2020	2021	2022	2023
Aholining umumiy daromadlari, mlrd so‘m	342613.3	415085	521307.6	633567.4	728826.1
O‘tgan yilga nisbatan real o‘shishi, foizda	105.8	100.5	113.3	109.5	104.6
Aholi jon boshiga umumiy daromadlar, ming so‘m	10202.8	12125.6	14930.7	17772.8	20015.9
O‘tgan yilga nisbatan real o‘shishi, foizda	103.8	98.6	111.1	107.3	102.4

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2019–2023-yillar davomida aholining umumiy daromadlari barqaror o‘shish tendensiyasini namoyon qilgan bo‘lib, ushbu davrda yalpi daromadlar hajmi 342,6 trln so‘mdan 728,8 trln so‘mgacha yetgan. Bu esa besh yil ichida aholining umumiy daromadlari qariyb 2,1 baravarga oshganini ko‘rsatadi. Daromadlarning bunday sezilarli o‘shishi mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarish hajmining ko‘payishi, bandlikni oshirish, xizmatlar sohasining kengayishi va aholi turmush darajasining yaxshilanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Yillik real o‘shish sur‘atlari tahlili aholining iste‘mol qobiliyati va daromadlar dinamika-sidagi o‘zgarishlarni aniq aks ettiradi. 2019-yilda real o‘shish 105,8 % ni tashkil etgan bo‘lsa, pandemiya sharoitida 2020-yilda ushbu ko‘rsatkich 100,5 % gacha pasaygan. 2021-yilda iqtisodiy tiklanish natijasida real o‘shish 113,3 % ga ko‘tarilgan, biroq 2022-yilda biroz sekinla-shib 109,5 % ni tashkil qilgan. 2023-yilda esa real o‘shish sur‘ati 104,6 % gacha pasaygan bo‘lib, bu global iqtisodiy beqarorlik, import narxlarining oshishi va inflyatsiya bosimi bilan izohlanadi.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan umumiy daromadlar ham barqaror ko‘tarilib borgan. 2019-yilda 10,2 mln so‘mni tashkil qilgan ko‘rsatkich 2023-yilga kelib 20,0 mln so‘mga yetgan,

ya’ni besh yil ichida qariyb 2 baravarga oshgan. Bu esa aholi real farovonligi oshib borayotganini anglatadi. Biroq real o’sish ko’rsatkichlari (103,8–111,1 %) aholining xarid qobiliyati yilma-yil bir xil sur’atda ortmaganini, ayrim yillarda inflyatsiya daromadlarning o’sish sur’atini pasaytirganini anglatadi.

Umuman olganda, jadvaldagi statistik ma’lumotlar aholi daromadlarining barqaror o’sishini ko’rsatib, mamlakatda iqtisodiy faollik ortib borayotganini tasdiqlaydi. Biroq real o’sish sur’atlaridagi tebranishlar daromadlarning sifat jihatidan yanada barqaror o’sishini ta’minlash bo’yicha qo’shimcha iqtisodiy choralar ishlab chiqishni zarurligini ko’rsatadi.

2-jadval

2019-2023-yillarda O‘zbekiston aholisining hududlar bo’yicha aholi jon boshiga umumiy daromadlari[6].

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023
O‘zbekiston Respublikasi	10202.8	12125.6	14930.7	17772.8	20015.9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	7728.7	9437.4	11315.8	13266.1	14570.7
Andijon viloyati	9640.4	10765.7	12964.4	15910.1	18257
Buxoro viloyati	12672.2	14680.8	18117	21470.5	23480.3
Jizzax viloyati	9345.5	10935.9	13366.6	15090.6	17326.2
Qashqadaryo viloyati	8828.9	10203.9	12302.9	14610.8	16095.1
Navoiy viloyati	16403.3	14938.7	25002.2	27129.1	31445.6
Namangan viloyati	8037.1	9267.5	11446.3	13782.5	15070.6
Samarqand viloyati	9074.9	10529.1	12833.5	15437.1	16886.8
Surxondaryo viloyati	8631.1	9748.4	11860.4	14520.4	15811.6
Sirdaryo viloyati	9163.4	10935.4	13007.7	14635.8	16808.3
Toshkent viloyati	10455.6	13130	16486.1	18319.2	20730.2
Farg‘ona viloyati	7891	8858.9	11121.1	13844.4	15176.5
Xorazm viloyati	1082.9	12276.8	15763.6	19541.5	20076.6
Toshkent shahri	19551.6	25545.3	30841	37079.7	44427.9

Jadval ma’lumotlariga ko’ra, respublika bo’yicha o’rtacha jon boshiga daromad 2019-yildagi 10 202 ming so‘mdan 2023-yilda 20 015,9 ming so‘mga yetgan bo‘lib, daromadlarning deyarli ikki barobar oshgani kuzatildi. Biroq ushbu o’sish barcha hududlarda bir xil kechmagan. Eng yuqori daromad qayd etilgan hudud sifatida Toshkent shahri ajralib turadi: 2019-yildagi 19 551,6 ming so‘m daromad 2023-yilda 44 427,9 ming so‘mga ko’tarilgan. Bu ko’rsatkich respublika o’rtacha darajasidan ikki baravardan ko‘pdir.

Daromadlar bo’yicha ikkinchi yuqori guruhga Navoiy va Buxoro viloyatlari kiradi. Masalan, Navoiy viloyatida 2019-yilgi 16 403,3 ming so‘m daromad 2023-yilda 31 445,6 ming so‘mga yetgan. Bu hududlarda sanoat ishlab chiqarishi, konchilik majmualari va yuqori qo’shimcha qiymatga ega bo‘lgan tarmoqlarning mavjudligi iqtisodiy faollikni oshirmoqda. Buxoro viloyati ham 2023-yilda 23 480,3 ming so‘m ko’rsatkich bilan yuqori o’sish sur’atini namoyon qilgan.

Shu bilan birga, Farg‘ona, Andijon, Namangan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida daromadlar respublika o’rtachasidan past bo‘lib qolmoqda. Jumladan, Farg‘ona viloyatida 2023-yilda aholi jon boshiga daromad atigi 15 176,5 ming so‘m, Qashqadaryoda esa 16 095,1 ming so‘mni tashkil etgan. Xorazm viloyatida ushbu ko’rsatkich 20 076,6 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa-da, uning o’sish sur’ati ayrim yillarda barqaror bo‘lmagan. Ushbu tafovutlar hududlar o’rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar, sanoatlashuv darajasi, xizmatlar sektori rivoji, infratuzilma sifati va investitsiya oqimlaridagi farqlar bilan izohlanadi.

2023-yilda Toshkent shahri daromadi (44,4 mln so‘m) bilan Farg‘ona viloyati daromadi (15,1 mln so‘m) o’rtasida 3 baravarlik farq mavjud. Bu iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytiradi va hududiy siyosatni takomillashtirish zaruratini ko’rsatadi.

Hududlar kesimida kuzatilayotgan asosiy muammolar sifatida quyidagilarni ko’rsatish

mumkin.

Birinchidan, iqtisodiy resurslarning hududlar bo'yicha notekis taqsimlangani tufayli ayrim viloyatlarda yuqori daromad manbalari shakllanmagan. Bu esa aholining iste'mol imkoniyatlari va farovonlik darajasida sezilarli tafovutni keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchidan, qator viloyatlarda sanoat salohiyati past bo'lib, xizmat ko'rsatish sektorining yetarli darajada rivojlanmaganini bandlikning past bo'lishiga, demakki, daromadlarning sust o'sishiga sabab bo'lmoqda.

Uchinchidan, aholining real daromadlariga ta'sir qiluvchi yashirin bandlik ulushi yuqori bo'lgan hududlarda rasmiy statistika to'liq iqtisodiy manzarani aks ettirmayapti.

To'rtinchidan, bozor infratuzilmasi, logistika, transport va kommunikatsiya xizmatlarining rivojlanmaganligi iqtisodiy faollikni cheklamoqda.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot natijalari aholi daromadlarining hududlar kesimidagi o'zgarishlari iqtisodiy faollik darajasi, bandlik tuzilmasi hamda investitsion jozibadorlik bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi. Hududlar o'rtasida aholi jon boshiga daromadlar bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud bo'lib, bu tafovutlarni kamaytirish uchun kompleks iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Shundan kelib chiqib, quyida mavjud muammolarni bartaraf etish va aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlashga qaratilgan takliflar ilgari suriladi.

1. Hududlarda iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini kengaytirish, ayniqsa past o'sish sur'atlari qayd etilayotgan Farg'ona vodiysi viloyatlarida kichik sanoat zonalarini faol rivojlantirish talab etiladi.

2. Xizmat ko'rsatish va raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida yangi ish o'rinlarini yaratish, yoshlar bandligini oshirish orqali aholi daromadlarining barqaror o'sishini ta'minlash.

3. Hududlarda iqtisodiy statistikani takomillashtirish, yashirin bandlikni qisqartirish va rasmiy mehnat bozorini kengaytirish orqali real daromadlarni aniqlashni yaxshilash.

4. Infratuzilmani rivojlantirish, ayniqsa transport va logistika tizimini kuchaytirish orqali hududlararo iqtisodiy integratsiyani kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fields, G. S., Cichello, P. L., Freije, S., Menéndez, M., & Newhouse, D. (2003). For richer or for poorer? Evidence from Indonesia, South Africa, Spain and Venezuela. *The Journal of Economic Inequality*, 1(1), p. 67–99.
2. Burgess, S., Propper, C. (1998). *Income and income mobility: Measurement and evidence*. Bristol: University of Bristol, Centre for Market and Public Organisation.
3. Woolard, I., Klasen, S. (2005). Determinants of income mobility and household poverty dynamics in South Africa. *Journal of Development Studies*, 41(5), 865–897.
4. Xusinov I., Imamova N., O'zbekistonda aholi daromadlari va turmush darajasi. *Iqtisodiy taqaiyot va ilmiy tahlil. Ilmiy-amaliy jurnal*. 2023. 73-80 b.
5. <https://stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi.
6. <https://openbudget.uz> - O'zbekiston Respublikasi ochiq byudjet portal.

<p>О.Фаттоев</p> <p>Совершенствование социально-экономического развития на основе анализа структуры и динамики доходов населения</p> <p>Аннотация. В данной статье проведён анализ структуры и динамики доходов населения Узбекистана за 2019–2023 годы на основе статистических данных, а также выявлены существующие социально-экономические диспропорции между регионами. По итогам исследования разработаны практические рекомендации, направленные на повышение благосостояния населения и совершенствование регионального развития.</p> <p>Ключевые слова: доходы населения, региональное благосостояние, динамика доходов, экономический рост, региональные различия, занятость, инвестиционные проекты.</p>	<p>O.Fattoev</p> <p>Improving socio-economic development based on the analysis of the structure and dynamics of household incomes</p> <p>Abstract. This article analyzes the structure and dynamics of household incomes in Uzbekistan for the period 2019–2023 based on statistical indicators and identifies socio-economic disparities across regions. Based on the research findings, practical recommendations were proposed to enhance population welfare and improve regional socio-economic development.</p> <p>Keywords: household income, regional welfare, income dynamics, economic growth, regional disparities, employment, investment projects.</p>
---	--

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.12.2025 йилда теришга берилди. 16.12.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0143А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.